

TARIX DARSLARIDA ZAMONAVIY INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH

**Valiyeva To'xtaxon Rasulovna**

Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani

39- umumiy o'rta ta'lim maktabining

tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix darslarida zamonaviy interfaol, qiziqarli o'yinlar usullardan foydalanishning ahamiyati va izlanuvchan pedagog o'qituvchi darslarda "Ortiqchasini top", "Begona so'zni top", "Kim chaqqon?", "Blits-so'rov", "Rost-yolg'on", "Bilmaganingni o'rgan, o'rganganingni-o'rgat", "Klaster", "Aqliy hujum", "Venn diagrammasi", FSMU, "Kichik guruhlarda ishlash", "Xotira mashqi", "Debatlar", "Ta'rif egasini toping", "Zanjirli savol-javob" kabi zamonaviy interfaol usullaridan foydalanish kabi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiya, metodik yordam, xalq pedagogikasi, namunaviy ochiq dars.

**Аннотация:** В статье раскрывается важность использования современных интерактивных, интересных игровых методов на уроках истории и пытливого учителя-педагога на уроках «Найди лишнее», «Найди иностранное слово», «Кто ловкий?», «Блиц-опрос». », «Верно-неверно», «Узнай то, чего не знаешь, учи тому, что уже знаешь», «Кластер», «Мозговой штурм», «Диаграмма Венна», ФГМУ, «Работа в малых группах», «Упражнение на память», Освещены такие идеи, как использование современных интерактивных методов, таких как «Дебаты», «Найти владельца определения», «Цепочка вопросов и ответов».

**Ключевые слова:** современные технологии, методическое обеспечение, народная педагогика, модельный открытый урок.

**Abstract:** In this article, the importance of using modern interactive, interesting game methods in history lessons and the inquiring pedagogue teacher in the lessons "Find the surplus", "Find the foreign word", "Who is agile?", "Blitz survey", "True-false", "Learn what you don't know, teach what you already know", "Cluster", "Brainstorming", "Venn diagram", FSMU, "Working in small groups", "Memory exercise", Ideas such as the use of modern interactive methods such as "Debates", "Find the owner of the definition", "Chain question and answer" are highlighted.

**Key words:** modern technology, methodical support, folk pedagogy, model open lesson.

Keyingi yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosini jahon ta'limi standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy faoliyat olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu -o'qituvchi va o'quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'l kelishi amaliyot ko'rsatib turibdi. Har bir yurtning buguni va kelajagi tom ma'noda, mamlakat ta'lim tizimining qay darajada rivoj topgani bilan belgilanadi. Zero, Vatan taraqqiyoti, millat istiqboli shu zaminda voyaga yetayotgan o'g'il-qizlar kamoli bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda xalq ta'limi tizimidagi eng muhim vazifalardan biri ta'lim sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarish, ma'naviy jihatdan barkamol, axloqan pok, shaxsiy va kasbiy fazilatlariga boy, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, faol yoshlarni shakllantirish, o'qituvchilarning bilimi va kasbiy mahoratini rivojlantirish, ularga amaliy metodik yordam berish, xususan, yosh o'qituvchilarning tanlagan kasbiga nisbatan ishtiyoqini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdir. O'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishi, yangiliklarni ko'ra bilishi, fan-texnika yutuqlarini amalda qo'llashni o'rganish, o'quv dargohida "o'qish, o'rganish va amalda qo'llash, natijalarni tahlil qilib, yanada samaraliroq ishlash" muhitini yaratib, yangi zamonaviy metodlarni izlab topish yo'lida tinmay mehnat qilish bugungi kun pedagoglari oldidagi katta vazifadir. Darslarni iloji boricha qiziqarli va samarali bo'lishi uchun o'qituvchi doim izlanishda, yangiliklar yaratishda, o'quvchi tafakkurida mavjud yashirin imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun, eng avvalo, mahorat sohibi, o'quvchi qalbini teran tushunadigan ruhshunos, xalq pedagogikasi va zamonaviy o'qitish uslublaridan xabardor mutaxassis bo'lishi, mahalliy imkoniyatlardan kelib chiqib ishlashi lozim. Izlanuvchan pedagog o'qituvchi darslarda "Ortiqchasini top", "Begona so'zni top", "Kim chaqqon?", "Blits-so'rov", "Rost-yolg'on", "Bilmaganingni o'rgan, o'rganganingni -o'rgat", "Klaster", "Aqliy hujum", "Venn diagrammasi", FSMU, "Kichik guruhlarda ishlash", "Xotira mashqi", "Debatlar", "Ta'rif egasini toping", "Zanjirli savol-javob" kabi zamonaviy interfaol usullaridan foydalanadi va bu usullar o'quvchilarni

chuqur bilim egallashiga hissa qo'shmoqda. Darslarni ko'rgazmali tashkil etish o'quvchilar bilimni yanada mustahkamlashga omil bo'ladi. O'quvchi o'rganayotgan materialni ko'rgazmali tashkil etilishi 70-90% ni o'zlashtirishga erishiladi. Shu bois ham o'qituvchi darslarni AKT dan foydalanib, turli qo'lda yasalgan ko'rgazmalar asosida o'tishga harakat qiladi. Xalqimizda "Beshikdan qabrgacha ilm izla" degan naql bor, o'qituvchi xalqi bir daqiqa ham izlanishdan va o'qishdan to'xtamasligi lozim. O'quv rejalarni, to'garaklar uchun, uslubiy birlashma faoliyati uchun ish rejalarini, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash rejalari va unga kerakli bo'lgan metodik tavsiyalarni va daralar uchun qo'shimcha ma'lumotlarni ziyonet.uz, uzedu.uz, kitob.uz, ziyouz.uz, ijod.uz, multimedia.uz, rtm.uz kabi saytlardan muntazam olib o'z pedagogik faoliyatiga moslab kelmoqda. Eng faol o'qituvchilarning ishlarini o'rganib, maktabda tashkil etilgan o'quv kurslarida, metod birlashma yig'ilishlarida ularning ijodiy-taqdimoti o'tkazilib kelinmoqda. Ayniqsa, fan oyliklarini tashkil qilishda haftaliklar, turli kechalar tashkil etilib, "Eng faol o'quvchi", "Eng namunaviy ochiq dars", "Qo'lda yasalgan ko'rgazmali-qurollar" ko'rgazmalari tashkil etilib kelinmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagog-olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida «Nega o'qitamiz?» «Nimani o'qitamiz?» «Qanday o'qitamiz?» savollariga javob izlash bilan bir qatorda «Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin?» - degan savoliga ham javob qidirdilar. Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, zamonaviy metodlar shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar

tayyorlash milliy dasturi»da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, zamonaviy metodlar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, zamonaviy metodlar o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, zamonaviy metodlar yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish usublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Zamonaviy metodlar va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Zamonaviy metodlarda pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usublardan foydalaniladi. Bugun ta'lim tizimida interfaol, pedagogik texnologiya, texnologiya, innovatsiya kabi tushunchalarni qo'llab kelmoqdamiz. Demak, bular qanday tushunchalar ekan? Yosh pedagoglarga esa biz bu so'zlarning ma'nosini sharhlab o'tamiz:

Innovatsiya - ingliz tilidan «innovation» - yangilik kiritish, yangilash, yangilanish.

Texnologiya - bu o'quv jarayonini to'liqligicha egallovchi loyiha, yaxlitlik, natija.

Pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini inson va texnik imkoniyatlarni hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo'naltirilgan jarayon.

«Interfaol» («interaktiv») - inglizcha so'z bo'lib, «interact» - «inten» - bu «o'zaro» «act» -bu «harakat qilmoq», umumlashtirganda esa «Interfaol» - «o'zaro harakat qilmoq» ma'nosini anglatadi. Interaction - hamkorlikni (boshqalar bilan) bildiradi.

Tarix darslarini interfaol o'tilishiga oid texnologik xarita va dars ishlanmalarini tuzish bo'yicha tavsiyalar.

Maqsad, vazifalar Maqsad: O'quvchilarga 1898 yil Andijonda bo'lib o'tgan qo'zg'olon to'g'risida bilimlar berish Vazifalar: - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, u larda raavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish.

- mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimini baholash.

Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu" desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday insonjamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fiklashini rivojlantirishga, milliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «O'zbekiston tarixi» dasturi. Toshkent. 1980-1990.
2. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)
3. Nurg'oziyev Sh.X. - Do'stlik TXTMFMT va TEB ga qarashli 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi